

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



**UZLUKSIZ TA’LIMDA ANIQ FANLARNI
O‘QITISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR
VA INNOVATSIYALAR**



**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

30-31-may 2025-yil

Guliston - 2025

«Uzluksiz ta'limda aniq fanlarni o'qitishga oid zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar» mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Guliston – 2025

Ushbu konferensiya to'plamida 2025-yil 30-31-may kunlari Guliston davlat pedagogika instituti tomonidan tashkil etilgan “Uzluksiz ta'limda aniq fanlarni o'qitishga oid zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” mavzusida o'tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, katta ilmiy xodim – izlanuvchilar, magistrlar, bakalavr va umumta'lim maktab o'qituvchilari, shuningdek barcha tadqiqotchilar foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

Tahrir hay'ati:

Rais: J.X.Karshibayev, rektor, b.f.d., professor.

A'zolar:

N.A.Ayaqulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

A.A.Qalandarov – O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

J.K.Komilov – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

D.Samadov – Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i.

Sh.T.Norqulov – Tabiiy fanlar fakulteti dekani.

M.B.Niyozov – “Aniq fanlar” kafedrasini mudiri.

Sh.A.Abdufatayev – “Aniq fanlar” kafedrasini katta o'qituvchisi

M.A.Mavlyanov – “Aniq fanlar” kafedrasini o'qituvchisi

M.Z.Xudayberdiyev – “Aniq fanlar” kafedrasini o'qituvchisi

Taqrizchilar:

P.f.n., dotsent S.I.Qulmamatov.

P.f.n., dotsent D.E.Toshtemirov.

Konferensiya to'plamiga kiritilgan maqolalarning mazmuniga mualliflar javobgardir.

© Guliston davlat pedagogika instituti, 2025.

bu esa ichki motivatsiyaning shakllanganidan dalolatdir. Natijada mustaqil ta'lim oluvchilarning akademik natijalari ham yaxshilanganligi kuzatilgan. Shunday qilib, mustaqil ta'lim psixologik jihatdan o'quvchida o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) va ichki motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, mustaqil ta'lim jarayonida o'quvchining metakognitiv qobiliyatlari – o'z o'qish faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalari – shakllanadi. Bu ko'nikmalar keyinchalik umrboqiy ta'lim (lifelong learning) uchun zamin yaratadi [4].

Fizika fanini o'qitishda mustaqil ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quvchilarning fanga qiziqishini orttirib, ularning mavzuni chuqurroq tushunishiga xizmat qilishi ushbu maqolada tahlil qilingan misollarda yaqqol ko'rinadi. O'quvchilarning mustaqil laboratoriya ishlari, loyihalar va interaktiv mashg'ulotlardagi ishtiroki ularning bilim olish jarayonini yanada mazmunli va qiziqarli qiladi. Pedagogik-psixologik nuqtai nazardan, mustaqil ta'limning joriy etilishi o'quv jarayonini faollashtirib, "o'rgatuvchi" emas, "o'rganuvchi" markazli muhitni yaratadi. Bu muhitda o'quvchining shaxsiy intilishi va izlanishi bosh harakatlantiruvchi kuch bo'lib, o'qituvchining roli yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, mustaqil ta'limni rivojlantirish – kelajakda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi va ijodkor yosh avlodni tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иминахунова, И.Х. Психологик ва педагогик адабиётларда талабаларнинг мустақил таълим фаолиятини ривожлантириш / И.Х. Иминахунова // Общество и инновации (Жамият ва инновациялар). – 2023. – № 4 (7/S). – С. 250–254.
2. Smith, R.C. Learner autonomy (Key concept in ELT) / R.C. Smith // ELT Journal. – 2008. – Vol. 62, № 4. – P. 365–397.
3. Баликаева, М.Б. Развитие самообразования студентов вуза в условиях реализации компетентного подхода: дис. ... канд. пед. наук / М.Б. Баликаева. – Ташкент, 2007. – 148 с.
4. Hall, N. Instructors' support of student autonomy in an introductory physics course / N. Hall, D. Webb // Physical Review Special Topics – Physics Education Research. – 2014. – Vol. 10, № 2. – Article 020116.

PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOVNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI

Umbarov Abduvohid Uktam o'g'li- Chirchiq davlat pedagogika universiteti Fizika kafedrasi o'qituvchisi

Zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonini individuallashtirish bo'lib, bunda har bir talabaning qiziqishlari, qobiliyatlari, bilim darajasi va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish talab qilinadi. Metodik kompetentlik deganda, talabalarning pedagogik faoliyatda fan mazmunini tushunish, uni amaliyotda qo'llash hamda o'qitish jarayonlarini metodik jihatdan samarali tashkil etish qobiliyati tushuniladi. Bu kompetentlik ayniqsa, elektromagnetizm bo'limini o'zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Elektromagnetizm bo'limi fizika fanining eng murakkab va amaliy jihatdan boy sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, mazkur

mavzuni o'qitishda talabalarning metodik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati yuqori bo'ladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – “Fizika va astronomiya” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun elektromagnetizm bo'limini o'qitishda individual ta'lim trayektoriyalarini qo'llash orqali ularning metodik kompetentligini oshirishning samarali metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini amaliy pedagogik tajriba-sinov orqali tasdiqlashdir. Ushbu jarayonning dolzarbligi fan mazmunini sifatli o'zlashtirishni ta'minlash, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni kengaytirish bilan bog'liq.

Tadqiqot davomida talabalar uchun individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari batafsil tahlil qilinib, ularning metodik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar va vositalar ishlab chiqildi. Ushbu pedagogik yondashuv talabalarning faolligini oshirib, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini chuqurlashtirdi, natijada pedagogik tajriba-sinov natijalari asosida individual ta'lim trayektoriyalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi isbotlandi.

Shunday qilib, ushbu maqola pedagogik sohada ilg'or tajribalar va metodik yangiliklarni qo'llash orqali talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha muhim ilmiy-uslubiy manba sifatida xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish uchun avvalambor, pedagogik adabiyotlar va ilmiy manbalar chuqur va har tomonlama o'rganildi. Mavzuga oid mavjud ilmiy ishlarda pedagogik tajriba-sinov metodikasining nazariy asoslari, uning asosiy bosqichlari va ularni amalga oshirish usullari batafsil tahlil qilindi. Ayniqsa, pedagogik eksperimentlarni o'tkazish borasida taniqli olimlar S.Anisimov va B.N.Poyzner kabi mutaxassislarining ilmiy qarashlari va metodikalari o'rganilib, tadqiqotimiz uchun zarur metodologik asos sifatida foydalanildi.

Pedagogik eksperiment ikki asosiy bosqichga ajratildi: aniqlashtiruvchi va rivojlantiruvchi bosqichlar. Aniqlashtiruvchi bosqichda talabalarning mavjud bilim va ko'nikmalarini aniqlash, ularning metodik kompetentligi darajasini aniqlash uchun maxsus diagnostik tadbirlar o'tkazildi. Ushbu bosqichda talabalar bilimlarini aniqlash uchun aniq diagnostik vositalar ishlab chiqildi va ularning dastlabki tayyorgarlik darajasi tahlil qilindi. Talabalarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash va kelgusidagi pedagogik jarayon uchun asosiy mezonlarni shakllantirish uchun testlar, so'rovnomalar va intervyu metodlari qo'llanildi.

Rivojlantiruvchi bosqichda individual ta'lim trayektoriyalari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu bosqich talabalarning metodik kompetentligini oshirishga qaratilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil qilindi. Bu bosqichda har bir talaba uchun alohida pedagogik yondashuvlar va metodikalar ishlab chiqildi. Shuningdek, amaliy darslarda va laboratoriya mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalaridan, jumladan, PhET simulyatsiyalari, elektron platformalar va interaktiv darsliklardan keng foydalanildi.

Pedagogik tadqiqot jarayonida kuzatish metodi orqali talabalar faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilish, ularning o'zlashtirish darajasini baholash va pedagogik samaradorlikni oshirish uchun zarur ma'lumotlar yig'ildi. Anketa-so'rovnomalar va intervyular orqali talabalar hamda professor-o'qituvchilarning fikr-mulohazalari tahlil qilindi. Bu metodlar orqali olingan natijalar keyinchalik pedagogik jarayonning samaradorligini baholash va aniqlangan muammolarni hal qilish uchun asos bo'ldi.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida talabalar metodik kompetentligini rivojlantirish uchun individual ta'lim trayektoriyalarini qo'llashning yuqori samaradorligi aniqlandi va ilmiy jihatdan asoslandi. Dastlabki diagnostik test natijalariga ko'ra, tajribada ishtirok etuvchi talabalar metodik bilim va ko'nikmalar bo'yicha turli darajalarda ekanligi kuzatildi. Boshlang'ich bosqichda ko'pchilik talabalar metodik bilimlarni qo'llashda va amaliy vaziyatlarni echishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelganliklarini ko'rsatdi.

Tajribaning rivojlantiruvchi bosqichida ishlab chiqilgan individual ta'lim trayektoriyalari joriy etilishi bilan talabalarning bilim va amaliy ko'nikmalarida sezilarli o'zgarishlar qayd etildi. Tajriba davomida olib borilgan oraliq va yakuniy nazorat testlari talabalarning metodik bilimlarni qo'llash samaradorligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarida ijobiy dinamika kuzatilganligini ko'rsatdi.

Statistik tahlil natijalari ham ushbu metodik yondashuvning samaradorligini yana bir bor isbotladi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya tajribalarida zamonaviy simulyatsiya vositalaridan foydalanish talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishni osonlashtirdi va ularning metodik kompetentligini oshirdi. Pedagogik kuzatish va suhbatlar natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishlari va faolligi sezilarli darajada oshgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, individual ta'lim trayektoriyalaridan foydalanish pedagogik jarayonni sifat jihatidan yaxshilash imkoniyatlarini kengaytiradi va talabalarning kasbiy tayyorgarligini samarali oshiradi. Ushbu metodikaning keng joriy qilinishi fizika va astronomiya yo'nalishidagi talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda istiqbolli usul ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan pedagogik tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijalari talabalarning metodik kompetentligini rivojlantirishda individual ta'lim trayektoriyalarining yuqori samaradorligini aniq va ravshan tasdiqladi. Individual ta'lim trayektoriyalarini qo'llash orqali talabalar o'z bilimlarini chuqur va amaliy jihatdan mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunday yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliyotda samarali qo'llash qobiliyatlarini ham sezilarli darajada rivojlantirdi.

Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, individual yondashuv asosida olib borilgan pedagogik ishlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, talabalar orasida metodik bilim va ko'nikmalarni yuqori darajada shakllantirish imkonini berdi. Tajriba davomida metodik kompetentlik darajasi sezilarli ravishda oshdi va talabalarning mustaqil pedagogik qarorlar qabul qilish hamda kasbiy vazifalarni ijodiy ravishda hal qilish qobiliyatlari rivojlandi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki pedagogik metodikaning doimiy yangilanishi va pedagogik amaliyotda keng tatbiq etilishi orqali, ta'lim jarayonlarini yanada samarali va talabalar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil qilish mumkin bo'ladi. Shu bois, mazkur metodikaning ta'lim tizimida keng qo'llanishini tavsiya qilamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Umbarov A.U. Pedagogika oliy ta'lim muassalarida umumiy fizikaning elektromagnetizm bo'limini o'qitishda individual ta'limning pedagogik shart-sharoitlari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar // ISSN: 2181- 1717 (SJIF: 3,805). - Buxoro, 2023. №12.
2. Иванов, Д.А. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий [Текст]: учебно-методическое пособие / Д.А. Иванов, К.Г. Митрофанов, О.В. Соколова. -М.: АПК и ПРО, 2003.
3. М. Djo'rayev, "Fizika o'qitish metodikasi"- T.: 2016
4. Карасова, И.С. Методологический анализ целей педагогической деятельности и связанных с ним технологий физического образования / И.С. Карасова, О.Н. Королева // Вестник ЧГПУ. - Серия 2. Педагогика. Ф Психология. Теория и методика обучения. - 2002. - N26. - С.133 - 136.

РАЗВИТИЕ СВЯЗНОЙ РЕЧИ У СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ КАК КОМПОНЕНТ ШКОЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ

Абдурауфова Хилола Шахобиддиновна- Магистрант 1 курса направления :
Дошкольное образование НПУУ имени Низами

Аннотация. В статье рассматриваюця значение и содержание развития связной речи у детей старшего дошкольного возраста, а также роль етого процесса в подготовке к Школе. Связная речь считаеця одним из основных показателей самостоятельности ребенка в обшени, связного выражения мыслей, готовности к чтению и письму. В исследовании проанализирована эффективность занятий, игр и интерактивных методов, направленных на развитие связной речи, а также даны практические рекомендации.

120	Nurmaxamadov X. Sh.	Uzluksiz ta'lim tizimida boshqaruvning samaradorligini oshirish	385
121	Sulaymanova N. O., To'xtayeva A. D.	Uzluksiz ta'lim tizimida steam yondashuvining integratsiyasi: muammolar va amaliy yechimlar	387
122	Sheraliyev S. S, Irkinov M.B.	Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va uning ahamiyati	391
123	Xolmuratova G. A.	O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	394
124	Alibayeva D.	Ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	397
125	Mahkamov H. B.	Talabalarning raqamli texnologiyalarga oid kompetentligini rivojlantirish	400
126	Xakimova F. A., Mirzaqobulov D. M.	Ta'lim tizimiga innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning dolzarb masalalari	403
127	Маматов Ж., Нарбаев Ф.	Дискретная модель теплообмена между трубой и проходящей по ней теплоноситель	406

4-SHO'BA. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INNOVASION YONDASHUVLAR, MUAMOLAR VA YECHIMLARI			
128	Sattarova Sh. Q.	Zamonaviy pedagoglarda ijobiy fikr rivojlanishida optimizmning namoyon bo'lishi	411
129	Ergashev R.N.	Ta'limni integratsiyalash masalalari	417
130	Терехова О. Е.	Непрерывное педагогическое образование: ключ к успеху и адаптации в современном образовательном пространстве	420
131	Хакимова О., Каримова Р., Сайфидинова М.	Дошкольное образование: новые подходы и инновационные технологии	423
132	Daminova S. X.	Mustaqil ta'lim tushunchasining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	426
133	Umbarov A. U.	Pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish va o'tkazish metodikasi	428
134	Абдурауфова Х. Ш	Развитие связной речи у старших дошкольников как компонент школьной готовности	431
135	Asheraliyeva M. X.	Globalashuv davrida axloq va qadriyatlarning pedagogik ahamiyati	434
136	Sharipov F.G. Sharipova E.F.	O'zbek va ingliz tillarida sifat yasovchi qo'shimchalar	436
137	Sharipov F.G. Sharipova E.F.	O'zbek va ingliz tillaridagi so'z yasovchi qo'shimchalarning farqli jihatlari	439
138	Abdufatayev Sh.	Integrativ yondashuvning –ta'limdagi o'rni	441